

## O'ZBEK MILLIY ME'MORCHILIGIGA ZAMONAVIY ME'MORCHILIKNI KIRIB KELISHI VA UYG'UNLASHUVI

Nuraliyeva Shaxzodaxon Dilbarovna

*Andijon tuman XTB ga qarashli 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
"Tasviriy san'at va chizmachilik" fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada umumta'lim maktablarida mavzu asosida rasm ishlashda, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtirish usullari, umumiy tushuncha berish, tasviriy san'at tur va janrlari hamda tasviriy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan bir nechta misollar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Me'morlik san'ati, Andijon viloyati, bino, tashqi fasad, lanshaft dizayni, ochiq ranglar, interyer, bezatish*

Me'morlik san'ati bir necha turlarga bo'linadi. Bular uy-joy qurish san'ati, shahar qurish san'ati, sanoat va suv inshootlari qurish san'ati hamda jamoat va ma'muriy binolar ko'rish san'atidir. Bular ham o'z o'rnida yana qator turlarga ajraladi. Bu turlarning har biri o'ziga hos funksiya va harakterga ega bo'lib, ular binolarning loyihasi, tashqi va ichki ko'rinishi, badiiy bezatilishi bilan ajralib turadi. Har bir me'morlik yodgorligining qiymati va go'zalligi shu yodgorlikning o'z maqsadiga, vazifasiga to'liq javob berishidadir.

Me'morlik san'atida geometrik shakl va xajmlar asosiy ifoda va tasvir vositasi hisoblanadi. Shularning turli xildagi nisbat va joylanishlari, o'zaro kombinatsiyalari ma'lum me'morlik kompozitsiyasini tashkil etadi. Me'morlik san'ati ham san'atning boshqa turlari singari inson psixologiyasiga ta'sir etadi, uning kayfiyatini belgilaydi, ish qobiliyatiga, dunyoqarashiga, fikrlashiga ta'sir etadi.

Binoda xar bir elementlarni shu yer iqlim mintaqasiga mos kelishiga katta etibor berdik. bu yerning tabiiy xolati , yerning qatlami , seysmikzonasi xam o'rganildi. Malumki Andijon viloyati seysmik zona xisoblanadi shu sababdan viloyatimiz xududida baland binolar kam . Andijon viloyatida yer ostida suv qatlami xam mavjudligini baland binolarning kamligiga sabablardan yana biri xisoblanadi. Qishda sovuq yozda jazirama issiq bu yer iqlimiga xos xolatdir . Demak shu sharoitlarga mos keluvchi binoni barpo etish davr talabidir.



Andijon shahridagi zamonaviy binolar.

Andijon viloyati aholi zichligi jihatdan nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyo shaharlari aholi zichligi bo'yicha xam yuqori o'rinda turadi. Bugungi kunda Andijon viloyati aholisi soni 4232300ni tashkil etadi. Butun jahonda aholisi soni va zichligi jihatidan Andijon

viloyati yuqori o'rinda turadi. Andijon viloyatini umumiy maydoni 4240 km<sup>2</sup>ni tashkil etib 1kv/km 636.26 ta odam to'g'ri keladi. Bundan ko'rinib turibdiki turar joyga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori .Bu yerda ko'p qavatli turar joylar bilan ta'minlash juda zarur. Buning uchun esa dastlab qarovsiz, foydalanilmay bekor turgan yerlardan, yaroqsiz xolga kelib qolgan inshootlar o'rnini yangi milliy va zamonaviy yutuqlardan foydalanilgan holda turar joylarni barpo etish davr talabi deb bilaman .Biz amaliyotga tadbiiq etmoqchi bo'layotgan ko'p qavatli turarjoy juda ham ko'p qulayliklarga egadir.

Bu bino 6 qavatdan iborat bo'lib 1 qavati maishiy xizmat sifatida foydalanish uchun moslashtirilgan.



Tashqi fasaddan landshaft dizayni xam qulaylik va insonga zavq bera oladi. Yerga maxsus burschatka yotqizilgan. Maxsus joy ajratilib shu yerga yam yashilk gazon va manzarali daraxtlar ekilgan bu esa shu hududida ekologik maydonchasi xisoblanadi. Bundan tashqari binonig ortida bolalar maydinchasi tashkil etilgan . Bu yerda bolalar rag'umchog'i, sirpanchiq, xovuzcha, qum to'kilgan maxsus joylar tashkil etilishi bolalar bo'sh vaqtlarda shu joyda ota-onalari nazoratida bo'lishi taminlaydi.



### **Bolalar maydonchasi**

Kvartilar juda ko'p qulayliklarga ega bo'lib mexmonxonani yorug' va keng bo'lishiga qarab ochiq ranglardan foydalanildi. Shift qismi zamonaviy tarzda gipsakartondan foydalanilgan xolda soda shakilga keltirilgan . Shiftga maxsus tejamkor lampalar o'rnatilgani xonani judaxam yorug' bo'lishiga yordam beradi.





Zamonaviy ushuda tamirlangan mexmonxona

Devorlar ochiq ranglardan foydalanilgan holda tamirlangan . Dekoratsiyalardan xonani yanada mukammallikka ega bo'lishini taminladik. Bezatishda xona jixozlari mutanosibliigi xam interyerni yaqqol ochib beradi.xonaning pol qismi parketdan ostiga maxsus qoplamaliy issitish moslamasi o'rnatilgan qishda xona yaxshi isishi uchun qullay tarzida tashkillantirildi.



### Xulosa

O'zbekiston nimasi bilan turislarni jalb etmoqda degan savollarga birinchi navbatda Samarqand , Buxoro, Xorazm viloyatlaridagi qadimiy binolar juda katta qiziqish uyg'otgani haqida takidlamogda. Bu binolar mana necha asrlardan buyon asrlar silsilasiga dosh berib kelmoqda. Ayni shu me'morchilik na'munalarini afzalliklarini bugungi bunyod etilayotgan binolarda qo'llash, ularni uzoq vaqt yurtimizga ko'rkiga ko'rk bag'ishlab turishini istagan xolda ushbu uyg'unlikni afzalliklarini yorishga xarakat qildim.

Yaratilgan maketimizdan maktabda va kasb-xunar kollejlarida dars jarayonida ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish, bu orqali o'quvchilarni fazoviy tassavvurini boyitish, estetik didini shakillantishda qo'l keladi. Darsdan tashqari to'garaklarda o'quvchilar bilan

birgalikda maket yasash ularni qurilish chizmachiligi , amaliy san'at na'munalarini o'rgatish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

6. Raxim Xasanov, Xoshimberdi Egamov. “Tasviriy san’atdan dars ishlanmalari” Toshkent- 2013 yil
- Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san't konsepsiyasi .Toshkent 1995
  - Tasviriy san'at Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi “ -Tosh sharq nash 1999
  - Boymetov.B Tolipov N “Maktabda tasviriy san'at to'garagi' Tosh 1995
  - Komenskiy Ya A “ Velikaya didaktika” Izobr ped soch Moskva :Uchpedgiz 1995
  - Leonar do Dovinchi “ Kniga o jivopisi”- Moskva 1934
  - Oydinov N.“Rassom o'qituvchilar tayyorlash muammolari”- Tosh o'qit 1997
  - [WWW.ziyo.net](http://WWW.ziyo.net)
  - <https://uza.uz>